

ELEKTRON HUKUMATNI JORIY ETISH: DAVLAT, BIZNES VA FUQAROLAR UCHUN AFZALLIKLARI

Farg'ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti 1-kurs talabasi

Yusufova Mavluda

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron hukumatning davlat, biznes va fuqarolar uchun keltiradigan afzalliklari tahlil qilinadi. Elektron hukumatning joriy etilishi davlat boshqaruvida , biznes jarayonlarida va fuqarolarning kundalik hayot tarzida qanday o'zgarishlarlarga sabab bo'lishi ham ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari elektron hukumatning bir qator afzalliklari, jumladan samaradorlikni oshirishi ,boshqaruvni shaffof qilish, korrupsiyani kamaytirish, xizmatlarni tez va oson taqdim etish va fuqarolarni davlat ishlariga yana ham faolroq jalb qilish singari jihatlari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari , e-hukumatning muvaffaqiyatli tarzda joriy etilishiga zarur bo'ladigan texnologik infratuzilma , normative-huquqiy baza va odam resurslari to'g'risida ham ma'lomit beriladi.

Kalit so'zlar. Elektron hukumat (e-hukumat), davlat boshqaruvi, raqamli xizmatlar, fuqarolar uchun elektron xizmatlar, kiberxavfsizlik, e-tijorat va elektron savdo, onlayn to'lovlar, raqamli guvohnoma.

Annotation. This article analyzes the benefits that e-government brings to the state, business, and citizens. It highlights how the introduction of e-government leads to changes in state governance, business processes, and the daily lives of citizens. Additionally, the article discusses a range of advantages of e-government, including increasing efficiency, enhancing transparency in governance, reducing corruption, providing services quickly and easily, and engaging citizens more actively in government affairs. The article also provides information on the necessary technological infrastructure, normative-legal

framework, and human resources required for the successful implementation of e-government.

Keywords. Electron government (e-government), state governance, digital services, electronic services for citizens, cybersecurity, e-commerce and online trade, online payments, digital identity.

Elektron hukumat- bu, raqamli texnologiyalardan davlat boshqaruvi jarayonlarini yaxshilash maqsadida foydalanishga asoslangan boshqaruv ko'rinishi. Bu fuqarolar, biznes va davlat o'rtasidagi muloqotni avtomatlashtirish va onlayn platformalar yordamida yanada samarador boshqarishni nazarda tutadi. Elektron hukumatning asosiy maqsadi - davlat xizmatlarini tez va qulay amalga oshirish ,fuqarolarni va bizneslarni turli xil jarayonlarga jalg qilish, bundan tashqari davlat resurslarini tejash hamdir.

1.Elektron hukumatning davlatga bera oladigan afzalliklari.

Elektron hukumatni joriy qilish sharofati bilan davlat boshqaruv tizimida bir qator ijobjiy o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, avtomatlashtirilgan jarayonlar yordamida qog'oz hujjalarni to'ldirish, ma'lum bir tashkilotdan kerakli hujjatni olish uchun sarson bo'lish va soatlab navbat kutish kabi yoqimsiz holatlarga barham berildi. Misol uchun ,endi yashash haqidagi ma'lumotni olish uchun fuqarolar yig'iniga, sod'lik haqidagi ma'lumot uchun poliknikaga borishga hojat yo'q. Shu tarzda , eng qadrli narsa, vaqt tejaladi, shu bilan birga energiya ham.Elektron hukumat tizimida onlayn hujjat to'ldirish yoki ma'lumotnoma olish bir necha daqiqa vaqt talab qiladi xolos. Bundan tashqari ,shu yo'sinda vaqtdan tashqari turli xil yo'l harajatlari ham ancha tejaladi.Shu yo'sinda harajatlarning kamaygani tufayli budget rivojlanadi hamda davlat, bizneslar va fuqarolar o'rtasidagi kelishuv va muloqotlar ancha osonlashadi.

Ikkinchidan, e-hukumat yordamida, amaldor va turli ishchilarining o'z vazifalarini suiiste'mol qilgan holda korruption vaziyatlar sodir etish holatlari ham ancha kamayadi.Bu esa davlat qonunlarining buzilishini kamaytiradi.

Uchinchidan, hukumatning elektron tarsi ma'lumotlarni markazlashtirishi orqali , ularni nazorat qilishi ancha yengillashadi. Yana, davlat organlari fuqaro va bizneslar haqida ma'lumotlarni tez va tartiblangan bir bazadan olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.Natijada kalchashlik va xatolar kamayadi.

2. Elektron hukumatning biznes uchun afzallikkleri

Eng avvalo, elektron hukumat biznes egalariga bir necha imkoniyatlар mavjud. Masalan, biznesmenlar muddati kelganda e-hukumat yordamida soliqlarini o'zlariga qulay bo'gan joyda va istalgan vaqtda ,kechasimi yo kunduzimi, to'lay ololadi. Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, bizneslar ko'pincha davlat idoralarining murakkab va uzoq jarayonlariga duch kelishadi va shunda e-hukumat tizimlari shunday byurokratik to'siqlarni kamaytira oladi. Va eng asosiysi biznes jarayonlarini tezlashtiradi va samaradorligini ancha oshiradi .

Ikkinchidan elektron hukumatni joriy qilish bizneslarga global bozorga chiqishda yordam beradi. Onlayn tizimlar orqali global miqyosda ishlash imkoniyatlari yaratiladi va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Elektron tizimlar bizneslarga yangi bozorlar va imkoniyatlar yaratadi, bu esa ularning daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

3.Elektron hukumatning fuqarolar uchun afzallikkleri

Fuqarolar uchun elektron hukumatning afzallikkleri faqatgina ularning kunlik faoliyatini soddalashtiribgina qolmasdan, davlat bilan muloqotda bo'lishni ham yanada qulayroq qiladi. Avvalo, fuqarolar elektron hukumat tizimlari yordamida davlat xizmatlaridan tez va qulay foydalanishlari mumkin. Masalan, arizalarni onlayn tarzda topshirish, to'lovlarni amalga oshirish va hujjatlarni olish ancha soddalashtiriladi. Bu jarayonlar fuqarolarga vaqt ni tejash imkonini beradi, chunki ular idoraga borib, navbat kutish o'rniga barcha ishlarini onlayn amalga oshirishlari mumkin.

Bundan tashqari fuqarolar davlat idoralariga borib, qog'oz ishlari bilan shug'ullanishlari shart emas . Chunki ular onlayn xizmatlardan foydalangan holda, vaqt ni

tejashlari mumkin. Elektron tizimlar fuqarolarga barcha xizmatlarni 24 soat davomida, hatto dam olish kunlari ham olish imkonini beradi. Bu esa fuqarolarni ko'proq qulaylik bilan ta'minlaydi.

Yana, e-hukumat tizimlari fuqarolarga davlat faoliyati haqidagi to'liq va yangilangan ma'lumotlarni beradi. Fuqarolar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishlari va davlat xizmatlari haqida to'liq axborot olishlari mumkin. Bu esa shaffoflikni oshiradi va natijada fuqarolar davlat ishlariga yanada faol jalb etiladi.

Avvallari odamlar, misol uchun, oliy ta'lim muassasalari (universitet, magistratura) yoki farzandlarini bog'cha va mакtabga berishlari uchun hujjat yig'ish jarayoni bir kunda kam vaqt olamagan va ko'plab sarsongarchiliklar yuz bergen, Ammo hozir esa elektron hukumat tizimlarida har bir shaxs o'z kabinetiga ega va u istalgan vaqt va istalgan joyda kerakli hujjatlarni yuklab olish va jo'natish imkonoga ega. Yana, soliq to'lash, ijtimoiy ko'mak olish, turli xil ro'yxatlarga olinish ham onlayn tarzda amalga oshirilmoqda. Buning natijasida hujjatbozlik vaqtida yuz bergen korruption holatlar, tushunmovchiliklarga barham berildi.

4.Elektron hukumatni joriy etishdagi muhim asoslar

Elektron hukumatni muvaffaqiyatli joriy etish uchun ba'zi muhim jihatlar mavjud bo'lib ular texnologik infratuzilma, xavfsizlik va kadrlar tayyorlashni o'z ichiga oladi. Birinchidan, texnologik infratuzilma elektron hukumatni joriy etish uchun kuchli texnologik infratuzilma talab etiladi. Internet aloqasi, ma'lumotlar bazalari va axborot texnologiyalari tizimlari samarali tashkil etilishi kerak. Bundan tashqari, texnologik infratuzilma o'zgaruvchan ehtiyojlarga moslashtirilgan bo'lishi zarur. Ma'lumotlar xavfsizligi fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari va bizneslarning tijorat sirlarini himoya qilish juda muhim. elektron hukumat tizimlari foydalanuvchi ma'lumotlarini xavfsiz saqlashni ta'minlashi zarur. Aks holda, elektron tizimlar ishonchsiz bo'lib qoladi. Kadrlar tayyorlash elektron hukumatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat va biznes xodimlarini tayyorlash zarur. Bu xodimlar yangi texnologiyalarni ishlatish va tizimlarni

samarali boshqarish bo'yicha malakali bo'lishi kerak. Dunyo bo'ylab elektron hukumatning amalga oshirilishi dunyo bo'ylab bir qator davlatlar elektron hukumatni joriy etishda yetakchilik qilmoqda. Estoniya o'zining elektron hukumat tizimlari bilan tanilgan va fuqarolariga to'liq onlayn xizmatlar taqdim etadi. Shvetsiya, Singapur, va Janubiy Koreya ham elektron hukumatni muvaffaqiyatli amalga oshirgan davlatlardir. Elektron hukumatning kelajagi texnologiyalarning rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Yangi texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt, blokcheyn va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi imkoniyatlar, elektron hukumat tizimlarini yanada samarali va ishonchli qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, elektron hukumat (e-hukumat) davlat boshqaruvini samarali va shaffof qilish, biznes jarayonlarini tezlashtirish va fuqarolar bilan muloqotni soddalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu tizimlar korrupsiyani kamaytirish, xizmatlarni tez taqdim etish va fuqarolarni davlat ishlariga jalb qilish imkonini yaratadi. Bizneslar uchun byurokratik to'siqlarni kamaytirish va global bozorga chiqish imkoniyatlari paydo bo'ladi, fuqarolar esa xizmatlarga oson kirish, vaqt ni tejash va shaffoflikdan foyda ko'radi. Elektron hukumatni joriy etishda texnologik infratuzilma, xavfsizlik va malakali kadrlar muhimdir. Kelajakda sun'iy intellekt va blokcheyn kabi texnologiyalar tizimlarning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UN E-Government Survey (2020). United Nations Department of Economic and Social Affairs.
2. Kettunen, P., & Kallio, J. (2021). "Digital Transformation in Government: A Comparative Study of e-Government Implementation." *Journal of Digital Government*.
3. Scholl, H. J., & Scholl, M. C. (2019). "The Role of Information and Communication Technologies in Government Reform." *Government Information Quarterly*.

4. Bertot, J. C., Jaeger, P. T., & Grimes, J. M. (2010). "Using ICTs to Create a Culture of Transparency: E-Government and Social Media as Openness and Anti-Corruption Tools." *Government Information Quarterly*.
5. Luna-Reyes, L. F., & Gil-Garcia, J. R. (2011). "Information Systems and Public Sector Transformation: A Socio-Technical Approach." *Government Information Quarterly*.
6. World Bank (2018). "Digital Government: Improving Public Sector Performance in the Digital Economy." *World Bank Group*.